

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYATI PEDAGOGLARNI
YANGI METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA,
TA'LIM TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI

“TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA SHAXS
KREATIV QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING
DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy-
online konferensiya

MATERIALLARI



**Jizzax
2023**

Г. Ш.Сиддиқова	Бола тарбиясида миллий куй-қўшиқларнинг аҳамияти	195
К. Хаққулов	Бо'лажак о'қитувчларда bilim va malakalarni mustaqil egallash ko'nikmasi	198
D.Tursunova	Shaxs ma'naviy-axloqiy faoliyatini tartibga solishda ehtiyoj va manfaatlar birligi	201
H.Choriyev	Shaxs pozitiv tafakkuri psixolog olimlar talqinida	206
Sh.M.Rizayeva D.M.Rizayeva	Inklyuziv ta'lim tushunchasi va uning dolzarb masalalari.	209
M.G'.Dehqanova	Individual ta'lim: maqsad va vositalar balansi	215
M.G'.Dehqanova D.A.Sherqo'ziyeva. Z.O'sarova	Duduqlanuvchi bolalar nutqini rivojlantirishning samarali yo'llari.	219
D. Lapasova	Ta'lim tizimida steam ta'limning o'rni	223
N.A.Egamberdiyeva	Autizm sindromli bolalardagi kamchiliklarni bartaraf etishda kreativ yondoshuv	225
O.E. Eshmuradov N.T.Mengnorova	Professional ta'lim tizimi o'qituvchisining fazilatlari va psixologik xususiyatlari	229
D.R.Farsaxonova D.Abdurahimova	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarbiya fani orqali faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish	232
N.Turayeva	O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda proyektiv metodikalarning o'rni	234
O.A.Mamato'rayeva	Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash asoslari	237
Sh.X.Kobilova	Inklyuziv ta'limda sinergetik yondashuvni tashkil etish	240
M. Jabborov	Tabiiy fanlarni integratsiya qilib o'qitishning ahamiyati	245
D.I.Xidirova	Musiqqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishda o'qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyasining o'rni	248
M.M.Jabborov	Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlash metodlari	256

3. Berestoviskaya S.E. O probleme stanovleniya novoy paradigmy obrazovaniya // Alma Mater, 2012. № 11. S. 30-34.
4. Gnevasheva V.V. Formirovaniye professionalnykh kompetensiy molodeji Rossii sisteme VPO: vzaimodeystviye rynka truda rynka i obrazovatelnykh uslug // Analiticheskiye obzory po osnovnym napravleniyam VO, 2012. № 3. 72 s.
5. Zagvyazinskiy V.I. Strategicheskiye oriyentiry razvitiya otechestvennogo obrazovaniya i puti ix realizatsii // Obrazovaniye i nauka. Izvestiya Uralskogo RAO, 2012. № 4. S. 3-16.
6. Rakovskaya O.L. Innovatsionnyye strategii razvitiya obrazovatel'nogo prosessa // Alma mater, 2012. № 10. S. 61-64.
7. Testov V.A. Informatsionnoye obshchestvo: perexod k novoy paradigme v obrazovanii // Pedagogika, 2012. № 4. S. 3-11.

DEHQONOVA MUBORAK G'YOSIDDINOVNA
ChDPU Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi
SHERQO'ZIYEVA DILDORA ABDUVALI QIZI.
O'SAROVA ZEBO KOMILJON QIZI.
CHDPU 3-kurs talabasi

**DUDUQLANUVCHI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING
SAMARALI YO 'LLARI.**

Annatsiya: Ushbu maqolada duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish jarayoni haqida ma'lumot berilgan.

Tayanch so'zlar :Duduqlanuvchi bola, adaptatsiya,morfologik element, korreksion ish,fonematik idrok.

Duduqlanuvchi bolalarning so'z boyligini oshirishda faoliyat va muloqot zarur shartlardan hisoblanadi. Maktabgacha yoshda muloqotning rivojlanishi faoliyatning shakllanishi bilan o'zaro bog'liqdir (mehnat, o'yin, tasviriy faoliyat). Maktabgacha tarbiya yoshidagi duduqlanuvchi bolalarning atrof olam haqidagi tasavvurini kengaytirish va so'z boyligini oshirish ularni atrofdagi predmetlar bilan, tabiat va jamiyat hayoti bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi. Bolalarning o'zini o'rab turgan borliq, jumladan, shahar, qishloq, teatr, metro haqida olgan bilimlari syujetli va ijodiy o'yinlar orqali mustahkamlanadi. Ular o'yinda turli rollarni bajaradilar. Bolalar turli o'yinlarda ijtimoiy xulq me'yorlarini o'zlashtirib boradilar. Keyinchalik ijtimoiy adaptatsiya uchun zarur bo'lgan lug'at

boyliklari mustahkamlab boriladi. Tevarak - atrof haqidagi tasavvurlarini kengaytirish tarbiyachining maxsus uyushtirgan mashg'ulotlarida ham amalga oshiriladi. Shuning uchun so'z boyligini oshirish va faollashtirish uchun tarbiyachining yakuniy mashg'ulotlari katta ahamiyatga egadir. Masalan, bir qator mashg'ulotlar davomida bolalar "Qishki kiyimlar", "Yozgi kiyimlar", mavzusi bo'yicha so'zlarni o'zlashtirib boradilar. O'zini o'rab turgan dunyo haqidagi tasavvurini kengaytirish hamda og'zaki nutqini rivojlantirish uchun maishiy va madaniy muassasalarga ekskursiya uyushtirish, shaharning diqqatga sazovor joylari bilan tanishtirish zarurligi ota - onalarga tushuntiriladi. Masalan, "Kasb" mavzusini o'rganishda ota - onalardan o'z mehnatlari haqida gapirib berish, iloji bo'lsa, o'zlari xizmat qilayotgan korxona yoki muassasa bilan tanishtirish so'raladi. "Shahar", "Qishloq", "Transport" mavzulariga bog'liq ravishda shu soha kishilari mehnati bilan tanishtirib boriladi, bir - biriga nutqiy ta'sir o'tkazish orqali nutqi o'stirib boriladi. Bu tasavvurlar duduqlanuvchi bolalar bilan guruhda o'tkaziladigan suhbatga asos bo'lib xizmat qiladi. "Kasblar", "Shahar", "Qishloq" kabi mavzular bo'yicha "Metro", "Paxta dalasida", "Do'kon" o'yinlari tashkil qilinadi.

Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish jarayonida so'zning morfologik elementi ustidagi ishlar asos bo'ladi. Bunda idrokni rivojlantirish va so'zlarni turli qismlarga ajratish ishlariga e'tibor beriladi. Buning natijasida bolalarda so'zning morfologik tarkibiga oid tushunchalarni solishtirish kabi kuzatuvchanlik qobiliyati shakllanib boradi. So'zning dastlabki morfologik tuilishi haqidagi tasavvurlar bolalarda so'zning muhim elementlari asos, qo'shimchalarini ajratish malakasini shakllantirishdan boshlanadi. Bunga o'rgatish o'zakdosh so'zlar orqali olib boriladi. O'zakdosh so'zlarni o'zlashtirish, bir tomondan, bolalarning so'z boyligini oshirsa, ikkinchi tomondan, so'zning morfologik tuzilishini o'zlashtirishga olib keladi. Kelgusida amaliy ishlar jarayonida turli o'zakdosh so'zlarning manosi aniqlanadi. Pedagogik turtki vazifasini o'tovchi savollar yordamida o'zakdosh so'zlarni tanlash malakasini shakllantirishda bolalar qo'shimchalardan grammatik jihatdan to'g'ri foydalanadilar. So'z shaklidagi o'zgarishni anglash yuzasidan o'tkazilgan mashg'ulotda rasm bo'yicha savollarga javob berish vazifasi topshiriladi. Bunda

bolalar diqqati berilgan soʻzning shakliga qaratilib, soʻz bilan qoʻshimchani ajratish taklif qilinadi. Keyin xuddi shu shakl boʻyicha gap tuzish soʻraldi. Masalan, logoped bolalardan soʻraydi: " Rasmda nimalarni koʻrayapsan?" (gulni, uyni, bolani). Bolalar oldin eshitgan soʻzlarining tovush tuzilishida qanday umumiylik borligini aniqlaydilar. Soʻngra quyidagicha savollar beriladi. " Bu soʻzlarda nimalar bir xil ?" , " Bu soʻzlarda qanday bir xil boʻgʻin bor?" . Tovush tahlilini egallagan bolalar umumiy - ni_ qoʻshimchasini ajratishadi. Shundan soʻng bolalar diqqati kelishik qoʻshimchalariga qaratiladi. Defektolog rasm boʻyicha soʻraydi: " Bolalar qayerga ketayapti?" (bogʻchaga, uyga) " Bogʻchaga nimada kelding?" (avtobusda, mashinada) " Qizcha nimaga suv quydi?" (gulga) Soʻng bolalarg mustaqil ravishda biror soʻzni kelishik qoʻshimchalari bilan oʻzgartirish soʻraladi. Uni yaxshi oʻzlashtirish maqsadida shu soʻzlardan gap tuzish vazifalari beriladi. Masalan, soʻzlarni maʼlum sintaktik konstruksiyaga moslashni oʻrgatish uchun biz quyidagi vazifalardan foydalaniladi: nuqtalar oʻniga mos soʻzlarni qoʻyib ayt (" Bolalar ... oʻynashmoqda ", " Qizcha ... suv quydi" (gul, koptok). Bolalar gap tuzdilar, bir - birining xatosini topdilar, gaplarni toʻldirdilar va ularni yaxlit axborot sifatida oʻzaro bir - biriga uzatdilar . Mashgʻulot davomida topishmoqlarning javobini topish vazifasi ham beriladi: " Oʻzi oppoq, quloqlari uzun, sabzini yaxshi koʻradi, tez chopadi (quyon) . Bolalar koʻrgazma asosida umumlashtiruvchi soʻzlar ishtirokida gaplar tuzishadi (tabiatni kuzatish vaqtida, rasmlarni koʻrish vaqtida). Masalan, olma, nok, uzum, behi kabi mevalar pishdi. Ularda umumlashmaning paydo boʻlishi nutqning rivojiga mustahkam negizdir. Mustaqil nutqni mustahkamlash uchun turli oʻyin mashqlari bilan birga tasavvuri boʻyicha hikoya qilish, alohida rasmlar boʻyicha tuzilgan hikoyalarni bir butun holda gapirib berish kabi vazifalardan foydalanadi. Masalan, "Bizning bogʻcha", "Bogʻchamizga qorbobo keladi" kabi mavzularda mashgʻulotlar oʻtkaziladi. Bularning barchasi duduqlanuvchi bolalar nutqida soʻzning tovush, boʻgʻin, morfologik tuzilishi bilan bogʻliq boʻlgan turgʻun kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi. Taʼkidlab oʻtilgan mashgʻulotlarni oʻtkazish natijasida duduqlanuvchi bolalar kundalik hayotida qoʻllaniladigan soʻzlarni oʻzlashtirdilar, sodda gap tuzish va uni grammatik jihatdan toʻgʻri yasash hamda shu elementlardan faol nutqda foydalanishni

o'rganadilar. Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi: bolalarda tovushning to'g'ri talaffuzi, fonematik idrok, so'zning tuzilishiga oid analiz va sintez qilish malakalari rivojlantiriladi; so'z boyligini mustahkamlash va faollashtirishga shart-sharoit yaratiladi; grammatik shakllar haqidagi tasavvurlari shakllantiriladi; hikoyani bayon qilish malaka va ko'nikmasi mukammallashtiriladi; erkin muloqot qilish malakasi takomillashtiriladi. Mazkur korreksion - pedagogik ishlar tizimi maktabgacha tarbiya yoshidagi duduqlanuvchi bolalarda nutqning fonetik, leksik, grammatik tomonlari bilan aloqador bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishda ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlari

1. Ayupova M. Yu. Logopediya - T : 2011.
2. Mo'minova L. R. Shomaxmudova R. Sh. " Bolalar nutqida nuqsonlar va ularni bartaraf etish" - T : Turon - iqbol, 2007 .
3. Волкова Г. А. Игровая деятельность в устранении заикания у дошкольников. - М: 1993.
4. Хватцев М. Е. Логопедия.-М : 1999.
5. Dehqonova, M. (2023). The first stages of ensuring continuity in the elimination of speech defects of speech-impaired children. science and innovation, 2(b2), 55-58.
6. G'iyosiddinovna, D. M. (2023). Specific Characteristics of Logopedic Work with Blind Children. Central asian journal of social sciences and history, 4(1), 101-105.
7. G'iyosiddinovna, d. m. (2022). 4+ 2 Ta'lim tizimidagi o'rni. ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 389-393.
8. Feruzakhon, Q., Khusnora, Y., & Dinara, A. (2022, April). Peculiarities of the psyche of deaf and hard of hearing children. In Next Scientists Conferences (pp. 24-27).
9. Muborak, D., & Lobar, S. (2022). Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqning kech rivojlanishi. ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 345-349



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA
O'RGATISH MILLIY MARKAZI

“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, TA'LIM TEXNOLOGIYALARI” KAFEDRASI

SERTIFIKAT

G'.M.Dehqonova

“Sifatli ta'limni tashkil etishda shaxs kreativ potensialini oshirishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida faol ishtiroki uchun

Pedagogika markazi direktori



A.Xolmurodov

15.11.2023 y